




BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI



Orazbaeva Nilufar Daryabay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Boshlang'ich ta'limgak fakulteti 2-guruh talabasi

Qarlibaeva Venera Baltamurat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Boshlang'ich ta'limgak fakulteti 2-guruh talabasi

Nietullaeva Gulzabira Salawat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Boshlang'ich ta'limgak fakulteti 2-guruh talabasi

Babaniyazova Zebinsa Nuratdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Boshlang'ich ta'limgak fakulteti 2-guruh talabasi

Annotation: Ushbu maqolada umumta'limgak matablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Abstract: In this article, the benefits of using modern information technology in elementary school are discussed.

Keywords: This article discusses the benefits of using modern information technology in elementary school.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'limgak, axborot texnologiyalari, kompyuter, dars.

Ключевые слова: Начальное образование, информационные технологии, компьютер, урок.

Keywords: Elementary education, information technology, computer, lesson.

EFFICIENCY OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION

Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilari soni jami 2129389 nafarni tashkil etadi. Ularga 111866 nafar pedagog saboq berib kelmoqda. Xozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelmoqda.



Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalariga, mакtablardagi turli xil o‘quv mashg‘ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarini turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to‘g‘ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o‘rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimedya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi, buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o‘ziga savol berishi ya’ni, an’anaviy ta’limdan qochib, noan’anaviy ta’lim berishga intilishi lozim.

Ma’lumki, ta’lim bu o‘qituvchi va o‘quvchilarining hamkorligidagi faoliyat turi bo‘lib, dars orqali o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib olishi natijasida undan foydalanish kompetensiyalariga ega bo‘ladi. Yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida esa o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishlari tabiiy hol masalan, ma’lumotlarni qabul qilish, ularni qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etish kabi jarayonlarda amalga oshadi.

Hozirgi kunda umumta’lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e’tirof etilganligi xech kimga sir emas. Jumladan, U.Sh.Begimkulov ta’lim jarayonida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan kompyuter axborot muhitini yaratish hamda ta’lim jarayonida multimedia, o‘qitishda immitatsiya, zarur axborotlarni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilinadigan ma’lumotlar bazasini yaratishni taklif etadi.

Mamlakatimizdagи deyarli barcha umumta’lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang‘ich sinf darslari o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o‘qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o‘zgartirib, o‘qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;

- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;

- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishi ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy me'roslarini o'rganishda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o'ynaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalarini vositalari orqali pedagog xodimlar hamda o'quvchilar juda ko'p miqdorda ma'lumotlarni olish, izlash qayta ishslash va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Albatta, ta'lim muassasalarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish. O'quv mashg'ulotlarini yangi interfaol usullar, zamonaviy vositalar ya'ni axborot texnologiyalarini vositalaridan foydalangan holda o'tkazish, jumladan, dars mashg'ulotlarida multimediani qo'llash, internet tarmog'idan foydalanish shubhasiz o'z samarasini beradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;
- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi;
- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;
- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;
- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;
- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy

texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zлari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarini ham o‘zлari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Boshlang‘ich ta’limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyatda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi kerak, u har bir o‘quv soatiga puxta tayyorlanib yangilik bilan kirishi kerak, chunki har darsda takrorlanadigan bir xillik o‘quvchini darsga va fanga qiziqishini susaytiradi, natijada dars samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Axborot texnologiyalarining o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ahamiyatli jihatlari quyidagilar:

- ✓ o‘quvchining diqqatini jamlash;
- ✓ ma’lumot to‘g‘risidagi tasavvurni kengaytirish;
- ✓ izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish;
- ✓ o‘z-o‘zini baholash.

O‘qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o‘rni quyidagilarda aks etadi:

- vaqtini to‘g‘ri taqsimlash;
- o‘quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo‘lishini ta’minlash;
- berilayotgan axborot ko‘lamini oshirish;
- o‘quv topshirig‘ining turlarini kengaytirish;
- sog‘lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Kompyuter dasturi orqali oddiy didaktik materiallar tayyorlashda va ularni kompyuter sinflarida o‘tiladigan darslarda o‘quvchilarga mustaqil ishlash uchun taqdim etish mumkin. Bunday didaktik material izohli matn sifatida, rasmlar bilan bezalgan holda, nazorat savollari bilan o‘quvchilarga beriladi va o‘quvchilar tomonidan bajarilishi nazorat qilinadi.

O‘qituvchi faoliyatida eng muhim jihatlardan biri bu o‘quvchilarning bilimini baholab borishdir. Barcha umumta’lim fanlarining turli bo‘limlariga oid nazorat testlarini kompyuter yordamida tuzish mumkin.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham ta’lim jarayonida didaktik vosita sifatida foydalilaniladigan dasturlarning maxsus bozori shakllanmoqda. Hozirda umumta’lim

darslarida foydalanishi mumkin bo‘lgan internetga joylashtirilgan ko‘plab dasturlar mavjud. Bular sirasiga birinchi navbatda elektron darsliklarni kiritish mumkin. Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o‘quvchilar voqealarni xronologik ketmasetlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to‘g‘ri izohlash yoki o‘ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma’nosini mos ravishda strelka bilan ko‘rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so‘zlarni to‘ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday bajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo‘ladi. O‘qituvchi dars jarayonida kompyuter yordamida mavjud materiallarni turli xil shaklda: slaydlar, video va audio parchalar diagrammalar, jadvallar, musiqiy ko‘rinishlarda taqdim etiladi. Kompyuter yordamida dars jarayonini tashkil etilishi o‘quvchilar tasavvuri va xotirasiga kuchli ta’sir qilib, eslab qolish jarayonini osonlashtiradi, darsni qiziqarli jarayonga aylantirib, o‘quvchilarni u yoki bu tarixiy davrga olib kirish va voqealar ichida go‘yoki ishtirok etish imkonini beradi.

Bugungi kun ta’limi o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish oid fikr va mulohazalarimizni bayon etamiz. Boshlang‘ich sinflarda ayrim mavzular asosida o‘qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo‘yicha fikrlarimizni bayon etamiz. “Videotopishmoq” metodi – ushbu metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar ketma-ketligi amalga oshirilishi lozim:

- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikrmulohazalarini bildirishadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Aytish joizki, multimedia ilovalarini har bir darsda qo‘llash natijasida o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash yana-da rivojlanadi. Xulosa sifatida

aytish mumkinki, axborot kommunikativ vositalarining boshlang‘ich sinf darslarida qo‘llanilishi va darsning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-3931-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O‘quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – T., Fan, 2012
4. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T: Fan va texnologiya, 2008.